Munozara qatnashchilari bir-birlarining qarshisida hech qanday imtiyozga ega emaslar, har kim o‘z obrazini o‘zi yaratadi va nutqiy fe’l-atvoriga ko‘ra virtual jamoa tomonidan qabul qilinadi. Kommunikatsiya vositalik xususiyatiga ega ekan (kompyuter orqali yozma tarzda amalga oshadi) va jonli muloqotga xos bo‘lgan paralingvistik vositalarga ega emas ekan (smayliklardan tashqari), suhbatdoshlar o‘zining verbal obrazini yaratishadi va har bir obraz o‘z ko‘rinishiga, mazmun-mohiyatiga ko‘ra yagonadir. Muloqot jarayonida o‘zini anglash, ko‘plab hayotiy savollarga javob qidirish kabilar vujudga keladi, falsafiy fikrlash va tafakur qilish kuchayadi.

1996-yil Judit Donat tomonidan ilmiy adabiyotga ilk bor “trolling” tushunchasi kiritildi. U trollingni zararli yolg‘on deb ta’riflab, trollar virtual muhitda begonalarga nisbatan ishonch va bag‘rikenglikning tez pasayishiga va onlayn hamjamiyatda paranoyaning rivojlanishiga hissa qo‘shishini ta'kidladi [2]. Trolling virtual konferensiyalarda, ijtimoiy tarmoqlardagi munozaralarda odamlarni yolg‘on ma’lumotga ishontirish, ular orasida agressiya holatini yuzaga chiqarish, auditoriyani fikrini o‘zgartirish, ularni chalg‘itish va boshqa maqsadlarni ko‘zlaydi. Trollingni oddiy so‘z bilan “buzg‘unchilik” deb atash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Virtual muhit hozirda voqelikning tarkibiy qismiga aylanib bo‘ldi, o‘z navbatida, u insonga real hayotda imkonsiz bo‘lgan ko‘plab imkoniyatlarni taqdim etishga qodir makonga aylandi. Bundan kelib chiqadiki, virtual muhit hozirda karnaval formalar bilan to‘lgan, chunki ham karnavallik, ham virtual reallik bu “oddiy” voqelikni to‘ldiruvchi o‘ziga xos “materiya”dir. Aynan shu “materiya” insonga ijtimoiy voqelikda qilishi mumkin bo‘lmagan narsalarni amalga oshirishga imkon beradi. Virtual muloqotda karnavalizatsiya foydalanuvchilar tomonidan shakllantiriladi va u virtual kommunikantning nutqida, nutqiy xulqida namoyon bo‘ladi. Hozirgi vaqtda kompyuter atamalaridan biri bo‘lgan “trolling” o‘z navbatida karnavalizatsiyaning bir ko‘rinishi deb hisoblaymiz. V.V.Ximikning fikriga ko‘ra, trolling bu “Internetdagi surbetlik, troll esa Internetdagi surbetdir” [3].

Shunday qilib, til karnavalizatsiyasi va internet tafakkuri virtual nutqning stilistik xususiyati bo‘lib, muloqotning o‘ziga xos o‘ynoqi improvizatsion xarakterini shakllantirishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Бахтин М.М. Проблемы творчества Достоевского. Проблемы поэтики Достоевского. 5-е изд., доп. Киев, “NEXT”, 1994, 508 – 508 с.

(2). Whitney Phillips. This is why we can't have nice things. Mapping the relationship between online trolling and mainstream culture. Cambridge. MIT Press, 2015. ISBN 9780262529877; 256 p.

(3). Химик В.В. Хам и хамство в русском речевом пространстве. Антропология языка. The Anthropology of Language: сборник статей. Выпуск 2. Отв. ред. С.Р.Омельченко. М., “Наука”, 2012, с. 97–105. 200 с. ISBN 978-5-9765-1442-3, ISBN 978-5-02-037787-5.

To‘rayeva Maftuna Akbar qizi (Samarqand davlat Chet tillar instituti 2-bosqich tayanch doktoranti; maftunaturayeva18@gmail.com)

FRANSUZ TILSHUNOSLIGIDA NEOLOGIZMLARNI TASNIFLASH TIPOLOGIYASI MASALALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda fransuz lingvistikasi sohasiga juda katta hissa qo‘shgan ikki lingvist olimlarning, ya’ni, Jean-François Sablayrolles hamda Jean Tournier larning tilshunoslikning yangi bo‘limi Neologiyada qilingan izlanishlarini o‘rganishga va ularning izlanishlari asosida ular yaratgan neologizmlar tipologiyasini nimalardan iborat va ularning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini tasniflashga harakat qildik. Tadqiqot asosi etib quyidagi tilshunos olimlarning izlanishlari: fransuz professori J.F.Sablayrolles, J.Pruvost, E.Benvenist, L.Guilbert, J.C.Boulanger; rus tilshunoslari N.N.Boldirev, L.Y.Kasyanova, o‘zbek tilshunosi D.B.Zokirova va boshqa turli yetuk tilshunoslar tadqiqotlariga murojaat etildi. Tadqiqot natijasida ushbu tipologiyalar tasnifi va tahlili qilinib, neologizmlarning kognitiv tahliliga asos qilib olish uchun mos tipologiyasi tanlab olindi.*

Kalit so‘zlar: *neologizmlar va neosemiyalar, postulat, klassifikatsiya, klassik trixotomiya, «Tipologiyalar tipologiyasi», parasintetik derivatsiya, kompozitsiya, sinaps, kontominatsiya va h.k.*

Тураева Мафтуна Акбаровна (докторант 2 курса государственного Института иностранных языков; maftunaturayeva18@gmail.com)

К ВОПРОСУ О ТИПОЛОГИИ КЛАССИФИКАЦИИ НЕОЛОГИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *В этой статье мы изучаем исследования двух лингвистов – Жана-Франсуа Саблеролля и Жана Турнье, которые внесли значительный вклад в область французской лингвисти-*

ки, особенно в новой отрасли языкознания – Неологии. Мы рассматриваем типологии неологизмов, разработанные ими на основе их исследований и пытаемся классифицировать их сходства и различия. Исследование опирается на работы следующих лингвистов: французского профессора Ж.-Ф.Саблеролля, Жана Прюво, Эмиля Бенвениста, Луи Гильбера, Ж.-К.Буланже, а также русских лингвистов, среди которых упоминаются исследования Н.Н.Были и Л.Ю.Касьяновой, узбекского лингвиста Д.Б.Зокировой и других передовых исследователей. В результате исследования были классифицированы и проанализированы данные типологии, а также выбрана подходящая типология в качестве основы для когнитивного анализа неологизмов.

***Ключевые слова**: неологизмы и неосемии, постулат, классификация, классическая трихотомия, «Типология типологий», парасинтетическая деривация, языковая композиция, синапс, контаминация и др.*

Turaeva Maftuna Akbar qizi (2st year doctoral student of Samarkand State Institute of Foreign Languages; maftunaturayeva18@gmail.com)

ISSUES OF THE TYPOLOGY OF CLASSIFICATION OF NEOLOGISMS IN FRENCH LINGUISTICS

***Annotation.** This article examines the research of two linguists–Jean-François Sablayrolles and Jean Tournier–who have made significant contributions to the field of French linguistics, particularly in the new branch of linguistics known as neology. We analyze the typologies of neologisms developed by them based on their research, attempting to classify their similarities and differences. The study is based on the works of the following linguists: French professor J.F.Sablayrolles, J.Pruvost, E.Benveniste, L. Gilbert, J.-C.Boulanger, as well as Russian linguists, including N.N.Boldyrev and L.Y.Kasyanova, Uzbek linguist D.B.Zokirova, and other leading researchers. As a result of the study, the data typologies were classified and analyzed, and a suitable typology was selected as the foundation for the cognitive analysis of neologisms.*

***Keywords**: neologisms and neosemy, postulate, classification, classical trichotomy, "Typology of Typologies", parasynthetic derivation, composition, synapse, contamination, etc.*

Kirish (Introduction). Ko'plab tub izlanishlar natijasida neologiya faqatgina yangi so'zni o'rganuvchi fan emas, balki bundan-da mashaqqatli jarayonni qamrab olishi, neologizmlarning yaratilishi esa undanda keng maydonni egalashi o'z dalillarini topmoqda. J.C.Boulangerning fikricha, neologiya o'zida leksik yaratilish jarayoni, leksik yangiliklarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish, yangi so'zlarni yaratish, qayd etish, tarqatish va o'zlashtirish maqsadida tashkil etilgan faoliyat, so'z boyligining yetishmasligini qoplash uchun muhim leksik to'ldirishni talab qiladigan harakatning ixtisoslashgan tarmoqlarini aniqlash uyushmasi, lug'atlar bilan bog'liq ushbu besh jarayonni ifodalaydi [1;4-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Har bir neologist tilshunos neologizmlar ustida izlanish olib borar ekan, qaysi tilda izlanmasin, ularning tipologiyasiga duch keladi. Louis Guilbert 1973-yilda chop etgan "Neologizm nazariyasi" [2;16–17-b.] asarida o'z ishining bir bobini neologizm tipologiyasiga bag'ishladi va u neologizmlarning turlarini tasnifladi. Olimning qarashiga ko'ra neologizmlarning har xil turlarini tasniflashga harakat qilish uchun tilning ishlashini kuzatishdan olingan ma'lum miqdordagi postulatlardan boshlash kerak. Izlanish davomida ushbu postulatlarni qayd etish va izoh berish lozim deb topildi va ular quyidagilar:

1. Til o'z kodiga ko'ra ishlaydi, uning yordamida nutqiy harakatlar va leksik shakllanishlar hosil bo'ladi. Boshqa tildan kelgan hamma narsa boshqa kodga tegishli deb hisoblanishi kerak. Darhaqiqat, har bir til o'z kodirovkasiga ega hisoblanib, boshqa tildan fransuz tiliga o'zlashgan neologizm o'sha tilning kodi asosida namoyon etiladi.

2. Neologizm "ma'no" tomoni va "ishora" tomonini o'z ichiga olgan lingvistik belgidir. Mutatsiya atamaning faqat morfologiyasiga yoki uning yagona ma'nosiga taalluqli bo'lsa ham, bu ikki komponent neologik yaratilishda birgalikda o'zgartiriladi. Ba'zan boshqa kodga tegishli so'z o'zlashish jarayonida ma'nosi yoki shakli mutatsiyaga, ya'ni, fransuz tilining ichki kodirovkasi bilan aloqaga kirishib o'zgarishga duch keladi.

3. Neologik shakllanish, ko'pincha, minimal ahamiyatga ega bo'lgan birlik emas. Bu tilda mavjud oddiyroq elementlarning birikmasidan kelib chiqadi. Yaratilish, keyinchalik, bu elementlar o'rtasida o'rnatilgan munosabatlar rejimida yashaydi. Demak, endilikda ushbu so'zlar boshqa birikmalar bilan birlashib, yaxlit tilning ichki qoidasiga moslashadi va ushbu tildagi tasvirni ifodalaydi.

4. Neologizmning yaratilishini jamiyatga integratsiyalashgan, muayyan vaziyatda o‘zini ifoda etuvchi ijodkor-individning nutqidan ajratib bo‘lmaydi. Yangi reallikni ifodalovchi neologizm endilikda turli sohalarda qo‘llaniladi.

5. Neologizm og‘zaki va yozma jihatni taqdim etadi. Shuning uchun grafik o‘zgarishlar neologik deb hisoblanishi kerak. Ushbu so‘zning har qanday fonetik, orfografik, grafik, grammatik, stilistik va h.k. o‘zgarishga uchragan jihati yangi neologizm yaratilishiga asos bo‘ladi.

Aynan shu postulatlarni inobatga olib, biz neologizmlarning har xil turlarini tasniflashga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Demak, muallif neologiyaning fonetik, sintaktik, semantik, grafik va o‘zlashgan so‘zlar kabi klassifikatsiyasiga e’tibor beradi. Masalan, muallif fonetik neologiyaga ta’rif berar ekan, “har bir tilda undoshlar va unlilar o‘rtasida o‘ziga xos kombinatorlik tizimi mavjud. Ba’zi ketma-ketliklar bir tilda uchramaydi, ular boshqa tilga xosdir” degan g‘oyani ilgari suradi. Buning isboti sifatida ikki tilning kombinator tizimini solishtirsak, ona tilimiz o‘zbek va fransuz. O‘zbek nutq talaffuzi tizimida burun tovushi yo‘q, fransuz tilida esa [q] tovushi yo‘q, [ky]ni talaffuz qiluvchi “Qq” undoshi bor, lekin o‘zbek tilida u mutlaqo farq qiladi. Shuning uchun bir tildan boshqa tilga so‘z o‘zlashganda fonetk o‘zgarishlarga duch kelishi mumkin va bu vaqtda birinchi postulatni yodga olamiz.

Muallif hech qanday tashqi ta’sirlarsiz, yangi so‘zlarning affiksatsiya, prefiksatsiya va kompozitsiya jarayonlari bilan yasalishini sintaktik neologiya deb ta’rif beradi. Aynan Louis Gilbert birinchi bo‘lib yangi so‘zlarni sintaktik tahlil qilgan tilshunosdir. O‘zining boshqa asarida sintaktik neologiyaga qisqacha shunday ta’rif beradi: “Sintaktik neologiya leksik sintagmatikada aniqlangan, ular orasidagi kombinatsiyaning aniq qoidalariga muvofiq leksik elementlar o‘rtasidagi munosabatlardan iborat” [3;35-b.].

F.Buno “Fransuz tili tarixi” asarida fransuz tilida yangi so‘zlarning shakllanishi sintaktik neologiya deya qayd etadi. Ammo J.F.Sablayrolles o‘zining maqolasida [4;43-b.] “sintaktik neologizmlar”ni “semantik neologizmlar” bilan bog‘laydi va kombinator neologiya deb ataydi. Uning izoh berishicha zamonaviy til fanlaridagi ba’zi nazariy asoslarning evolyutsiyasi, bu konsepsiyani takomillashtirishga asos bo‘ldi.

Jean-François Sablayrolles fransuz tili neologizmlarni tipologiyaga ajratar ekan, avvalombor, klassik trixotomiyani eslatib o‘tadi; shakl (formel), semantik (sémantique) va chet tilidan kirib kelgan so‘zlar (emprunt). J.F.Sablayrolles uchun semantik neologiya – bu boshqa belgi bilan allaqachon mavjud bo‘lgan leksikaga yangi ma’no berishdan iborat jarayondir. Shakl neologiyasi esa so‘zlarning shakl o‘zgarishi bilan bog‘liq yasalish usulllaridir. Ko‘rish mumkinki, formal neologiya va semantik neologiya tilning ichki harakati mevasi bo‘lsa, boshqa tomondan, o‘zlashgan so‘zlar tilning tashqi harakatidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Jean Pruvost va Jean-François Sablayrollesning “Neologizmlar” [5;128-b.] nomi ostida chop etilgan kitobining 5-bo‘limi “Ijodiy usullarning boyligi” mavzusiga bag‘ishlangan. Mualliflarnig fikricha, turli xil ishlarda taklif etilgan neologizmlar tipologiyalarining soni va xilma-xilligi ularning ravshan emasligi va bu sohada ba’zi chalkashliklar mavjud ekanligini ko‘rsatadi. O‘zlarining tipologiyasini taklif etishdan oldin ular izlanish olib borgan lingvistlar tasnifini jamlab “tipologiyalar tipologiyasi” nomi ostida solishtiradi va muallif tomonidan fransuz tili uchun taklif qilingan leksikogen matrisalarning asosi sifatida ingliz tili uchun ishlab chiqilgan Jean Tournier klassifikatsiyasini (1-jadval) eng maqbul deb hisobladi.

1-jadval

Jean Tournier tipologiyasi

matrices internes	▪ –morpho-sémantique –construction	–affixation –préfixation –suffixation –dérivation inverse –composition –juxtaposition –amalgame –motivation phonique –onomatopée et élément idéophonique
	▪ –Sémantique – transfert de classe –métasémie	conversion –métaphore –métonymie

	▪ –morphologique réduction du signifiant	–aphérèse et apocope –siglaison
matrices externes	▪ emprunt	–emprunt morpho-sémantique –emprunt sémantique et calque –emprunt morphologique

Sablayrollesning ushbu so‘z yasalish faoliyatining tipologiyasida Jan Tournier tipologiyasini fransuz tiliga moslashtirdi va uni to‘ldirdi:

2-jadval

Sablayrolles tipologiyasi

matrices internes	▪ morpho-sémantique	Construction	–affixation	–préfixation suffixation –dérivation inverse
			– composition –juxtaposition –amalgame –motivation phonique –onomatopée et élément idéophonique	
	▪ Sémantique – transfert de classe – métasémie		conversion –métaphore –métonymie	
	▪ –morphologique réduction du signifiant		–aphérèse et apocope –siglaison	
matrices externes	▪ emprunt		–emprunt morpho-sémantique –emprunt sémantique et calque –emprunt morphologique	

U Tournier kabi so‘z yasalish faoliyatini 2 matrisaga, ya’ni ichki va tashqi matrisaga ajratadi. Ichki matrisa nomidan kelib chiqib, bir til doirasida o‘z ichki imkoniyatlardan foyadalanib, yangi so‘z yaratilishidir. Tashqi matrisa esa turli yo‘l bilan boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlardir. Muallif ichki matrisani 3ta katta (morfo-semantik, sintaktik-semantik, morfologik) qismlarga va J.Tournierdan farqli o‘laroq, yangi bo‘lim (pragmatik) kabi jarayonlarga ajratadi.

Bu ikki tipologiyalarni tahlil etar ekanmiz, Sablayrolles parasintetik derivatsiyani affiksatsiyaning bir turiga va fleksion neologiyani esa affiksatsiya bilan teng maqomga ega yasalishning yangi tur sifatida kiritadi. Parasintetik affiksatsiya bu bir vaqtning o‘zida prefiks va suffiks qo‘shimchalari yordamida so‘z yasalishidir va uning o‘ziga xos jihati qo‘shilgan prefiks yoki suffiks o‘sha asosga alohida qo‘shilganda yangi so‘z yasalmasligidir. Misol uchun, embourgeoiser [6;1-b.] fe’lini oladigan bo‘lsa, asos «bourgeois» turdosh ot bo‘lib, em- prefiksi va -er nol darajali fe’l qo‘shimchasi qo‘shimchasi qo‘shilishi ta’sirida hosil bo‘lgan, «embourgeois» yoki «bourgeoiser» so‘zlari mavjud emas.

Olimning keltirgan misollariga ko‘ra, fleksion neologiya deb ot yoki fe’lning determinativlari (rod, son, shaxs-son, zamon, qo‘shimchalari) tilda mavjud bo‘lmagan yangi shaklni yasashiga aytiladi. Misol uchun, «écrivain» (yozuvchi) so‘zi fransuz tilida artikl yordamida erkak yoki ayol kishini ifodalash uchun qo‘llanilar edi, zamonaviy fransuz tili grammatikasida esa ayol yozuvchi écrivaine, ya’ni jenskiy rodni yasovchi "e" suffiksi qo‘shilishini ko‘zatishimiz mumkin.

Bundan tashqari, diqqatimizni ikki olim ham alohida qayd etgan teskari derivatsiya (ba’zi manbaalarda esa regressiv derivatsiya)ga qaratamiz. Nomidan ma’lumki, derivatsiya jarayoni teskari bo‘lishi lozim, ammo teskari atamasini qo‘llashimiz uchun «to‘g‘ri» derivatsiya deb nimaga aytilishi munozarali savoldir. Teskari derivatsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri sinxron tahlil metodiga tayanadi. Bir terminning qaysi derivatsiya yo‘li bilan yasalganini bilishimiz uchun uni tarixan kelib chiqishini o‘rganish lozim va tilda yuz bergan evolutsiyalar zanjiri har doim ham to‘g‘ri javobni bermasligi mumkin. Rus filologiya fanlari doktori N.D. Arutyunova «Morfologiya va so‘z yasalishi muammolari» kitobining teskari so‘z yasalishi va noto‘g‘ri derivatsiya masalalari nomli bobida [7;280-b.] teskari derivatsiyani tilga yangi so‘z yasash usuli sifatida qarashni inkor etadi va ularni lingvistik qarama-qarshiligining o‘zgarishi bilan emas, faqat tildagi so‘zlarning paydo bo‘lish ketma-ketligining o‘zgarishi bilan tavsifladi: «Shunday ekan, ispan tilining tavsif grammatikalarida, shuningdek, so‘z yasashga oid maxsus asarlarda bo‘lgani kabi, regressiv derivatsiyani affik-

satsiya, birikma va boshqalar bilan bir qatorda, maxsus so‘z yasalish turi sifatida ajratib ko‘rsatish uchun yetarli asos yo‘q».

Keyingi morfosemantik yasalish usuli kompozitsiya usuli bo‘lib, Sablayrolles uni kompozitsiya (composition), sinaps (synapsie) va kontominatsiya (mot-valise) kabi yasalish jarayonlariga ajratadi. Kompozitsiya usuli fransuz tilida, bizga ma’lumki, qo‘shma so‘zlar ikki xil: keng tarqalgan kompozitsiya (composition populaire) va ilmiy kompozitsiya (composition savante) kabi turlarga bo‘linadi.

Sinaps ko‘p tarqalmagan termin bo‘lib, uni birinchi marta fransuz lingvisti Emil Benvenist «Umumiy tilshunoslik muammolari»[8;171-176-b.] kitobida qo‘llagan. Fransuz tilida qo‘shma so‘zlar turli so‘z turkumlari birikmasidan hosil bo‘lishi mumkin, masalan, ot+ot, ot+predlog+ot, ot+sifat, sifat+ot, fe’l+ot, fe’l+fe’l va hokazo. Sinaps esa ushbu qo‘shma so‘zlarning aynan ot+predlog+ot (Nom+prep.+nom) sxemasi asosida yasalgan so‘zlardir. Bu sxema asosida asosan «de» va «à» predlogi qo‘llanilib, kamdan kam holatlarda «pour» yoki «en» predloglarini uchratishimiz mumkin.

Kontominatsiya (mot-valise) orqali so‘z yasalishi bugungi kunda neologiyada o‘z o‘rniga ega. Kontominatsiya ikki so‘zni qisqartirish natijasida olingan elementlardan tashkil topgan yangi so‘z sifatida qaraladi.

Ichki matrisaning so‘nggi pragmatik yasash qismi – chalg‘itish (détournement) usulidir. Muallif ushbu usulda yod bo‘lib qotib qolgan va qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, yangi o‘zgartirishlar kiritish bilan birlashtirib, asar nomlari, klassik hikmatli so‘zlar, matallar va boshqa murakkab va frazeologik leksikalarni o‘rganishni tavsiya etadi. Ammo muallif, ularni to‘g‘ri talqin etish uchun faqat asl leksika ustida izlanish olib borish kerakligini uqdiradi. U Fransiyaning shiori bo‘lib kelayotgan «Liberté, égalité, parité» iborasidagi «parité» so‘zi respublika qadriyatini bildirsa, hozirgi kunda esa «parit» – erkak va ayolning teng huquqligini anglatuvchi zamonaviy, hozirgi ma’no shakli ekanligini misol keltiradi.

Tashqi matrisani J.F.Sablayrolles Tournierdan farqli o‘laroq, yagona o‘zlashgan so‘zlarga birlashtiradi, Tournier esa uni 3 qismga bo‘lib o‘rgangan : morfologik, morfosemantik, semantik va kalkalash. Morfologik o‘zlashish to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish hodisasi hisoblanadi. Semantik o‘zlashish esa tilda mavjud bo‘lgan so‘zga yangi ma’no o‘zlashishidir. Morfosemantik usul butunlay shakl va ma’no qismini ham o‘zlashtirilishidir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ikki yirik professorning tipologiyalarini o‘rganish chog‘ida, ularni umumiylashtirib hamda farqli jihatlarini ajratib, neologizmlarning kognitiv tahlili uchun barcha yig‘ilgan materiallarni quyidagi tipologiyalarga ajratgan holda o‘rganish lozim deb topildi :

3-jadval

Neologizmlarning kognitiv tahlili uchun tipologiyasi

matrices externes	▪ emprunt	–emprunt sémantique et calque –emprunt morphologique
matrices internes	▪ Sémantique –transfert de classe –métasémie	 –conversion –métaphore –métonymie –autres
	▪ morpho-sémantique - construction	 –affixation –préfixation –suffixation –parasynthétique
		–composition –juxtaposition –synapsie
	▪ –morphologique réduction du signifiant	–troncation (aphérèse et apocope) –siglaison –mot-valise
	▪ –integration conceptuelle	

Ushbu tipologiyada asosiy urg‘u, so‘zlarning yasalish turiga emas, balki ularning avvalambor tashqi dunyo tasviri kirib kelish shakllari, ichki til boyligida esa tushunchalarning birikishi, kengayishi yoki torayishi orqali yangi tasvirlarni yoki mavjud tasvirlarni yangicha ifodalashga e’tibor beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Sablayrolles S.J.F. Présentation: Néologie, nouveaux modèles théoriques et NTIC. JSTOR [en ligne]. 2011, page 4. [cit. 2015-02-25]. Disponible sur: http://www.jstor.org/stable/41683698

(2). Guilbert L. Théorie du néologisme. In: Cahiers de l'Association internationale des études francaises, 1973, n°25, pp. 9–29.

(3). Guilbert L.Grammaire générative et néologie lexicale [en ligne]. 1974, p. 35 [cit. 2015-01-04]. Disponible sur: http://www.persee.fr/web/revues/home/prescript/article/lgge_0458-726X_1974_num_8_36_2272

(4). Sablayrolles S.J.F. De la «néologie syntaxique» à la néologie combinatoire. Langages, Armand Colin. 2011, pp. 39–50.

(5). Sablayrolles S.J.F. Pruvost J. «Les néologismes» Que sais-je? Presses Universitaires de France. 2016, p. 128.

(6). Арутюнова Н. Проблемы морфологии и словообразования. На материале испанского языка. 2007, 288 с. Город https://www.labirint.ru/books/214406/

(7). Benveniste E. Problèmes de linguistique générale, t. 2. Gallimard, Paris, 1974, pp. 171–176.

(8). Sablayrolles S.J.F. La néologie aujourd’hui. Claude Gruaz. A la recherche du mot: De la langue au discours, Lambert-Lucas, pp. 141–157, 2006. ffhalshs-00169475ff p6

Internet manbalari:

1. http://bbouillon.free.fr/univ/ling/fichiers/morpholex/morphlex1.htm#:~:text=3
2. https://vitrinelinguistique.oqlf.gouv.qc.ca/25444/les-emprunts-alanglais/typologie-des-emprunts

Qurbonov Zayniddin Oltinovich (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Nukus Innovatsion instituti; kurbanovzaynidin1@gmail.com)

QO‘SHRABOT TUMAN “JONBULOQ” MAHALLASIDAGI BULOQ KOMPONENTLI QISHLOQLAR TOPONIMIKASI TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada joy nomlari, toponimlarning turlari, shunindek, Qo‘shrabot tuman Jonbuloq mahallasidagi buloq komponentli qishloqlar toponimikasining kelib chiqishi haqidagi tahliliy ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *toponimika, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya, gidronomiya, oronimiya, oykonimiya, polinimiya, urbanonomiya, mikrotoponimiya, etnotoponim, antropotoponim.*

АНАЛИЗ СЕЛЬСКИХ ТОПОНИМОВ С КОМПОНЕНТОМ «РОДНИК» МАХАЛЛИ «ДЖОНБУЛОК» КОШРАБАДСКОГО РАЙОНА

Аннотация. *В данной статье представлены аналитические сведения о топонимах, типах топонимов, а также о происхождении топонимии сел с родниковым компонентом в микрорайоне Джонбулок Кошрабодского района.*

Ключевые слова: *топонимия, этнография, география, археология, геология, гидрономия, оронимия, ойконимия, полинимия, урбанономия, микротопонимия, этнотопонимия, антропотопонимия.*

STUDY OF THE TOPONYMICS OF VILLAGES WITH A “BULOQ (SPRING)” COMPONENT IN THE “JONBULOQ” NEIGHBORHOOD OF KOSHRABOT DISTRICT

Annotation. *This article presents analytical information about toponyms, types of toponyms, as well as the origin of the toponymy of villages with a spring component in the Jonbulok microdistrict of the Koshrabot district.*

Key words: *toponymy, ethnography, geography, archeology, geology, hydronomy, oronymy, oikonymy, polynymy, urbanonomy, microtoponymy, ethnotoponymy, anthropotoponymy.*

Kirish (Introduction). Toponimikani o‘rganish hozirgi kunda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Geosiyosiy o‘zgarishlar, urbanizatsiya va globalizatsiya natijasida yangi nomlar paydo bo‘lishi, eski nomlarning esa yo‘qolib ketishi kuzatilmoqda. Bu jarayon, o‘z navbatida, xalqning tarixiy va madaniy xotirasini o‘rganish uchun qiyinchiliklarni tug‘diradi. Bizga ma’lumki, har bir xalq o‘zi yashayaotgan qishloq, shahar va tumanning joylashish o‘rniga qarab nom qo‘yib kelishgan. Shu boisdan joy nomlari juda qadimiy hamda uzoq davrlarning mahsuli bo‘lib, hudud tarixi, geografiyasi, tabiati va boshqa jihatlari haqida boy ma’lumotlarni yetkazib beradi. Shu sababli toponimlarni tarix, etnografiya, geografiya, arxeologiya, geologiya singari fanlar o‘z predmeti sifatida o‘rganadi. Shuningdek, toponimika tilshunoslikni yuqorida keltirilgan fanlar bilan bog‘lovchi hamda muhim nazariy va amaliy ma’lumotlar berib turuvchi soha hisoblanadi.

Toponimika – geografik obyektlarning nomlarini o‘rganadigan fan bo‘lib, u yer nomlarining kelib chiqishi, tarixi, ma’nosi va funksiyalarini tahlil qilish bilan shug‘ullanadi. Toponimlar nafaqat joylarni ifodalash uchun xizmat qiladi, balki xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiradi. Toponimika